

## XIII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

**Ish haqi.** 2022- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko‘rsatmoqda:



**Ta’limda** 63 164 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 45,6 % ni) xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 452,8 ming so‘mni tashkil etgan va 2021- yilning mos davriga nisbatan 18,2 % ga o‘ydi.



**Sanoatda** 18 884 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi – 13,6 %) xodim ishlagan bo‘lib, ishlovchilarga o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 488,8 ming so‘mni tashkil etgan va 2021- yilning mos davriga nisbatan 19,0 % ga ko‘paydi;



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda** 24 537 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 17,7 %) xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 628,0 ming so'mni tashkil etgan va 2021- yilning mos davriga nisbatan 23,7 % ga o'sdi;



**Tashish va saqlashda** 3 930 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,8 %) xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 520,9 ming so'mni tashkil etgan va 2021- yilning mos davriga nisbatan 55,6 % ga o'sdi;



**Moliyaviy va sug'urta faoliyatida** 2 331 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,7 %) xodim ishlagan bo'lib, ishlovchilarga o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 8 515,8 ming so'mni tashkil etgan va 2021- yilning mos davriga nisbatan 25,8 % ga o'sdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2022- yil yanvar-sentabr oylarida Xorazm viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 053,6 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek, uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 24,5 % ga o'sishi kuzatildi.



**Sohalar kesimida yuridik shaxslar soni va ishlovchi xodimlar soni**  
*(2022- yil yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)*

	<i>Xodimlar soni, kishi</i>		<i>O'sish sur'ati %</i>	<i>ulushi</i>
	<i>2021- y.</i>	<i>2022- y.</i>		
<b>Xorazm viloyati – jami:</b>	<b>132148</b>	<b>138538</b>	<b>104,8</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	15718	18884	120,1	13,6
Qurilish	1395	1371	98,3	1,0
Savdo	1849	1281	69,3	0,9
Tashish va saqlash	2649	3930	148,4	2,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	76	74	97,4	0,05
Axborot va aloqa	784	796	101,5	0,6
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	2413	2331	96,6	1,7
Ta'lim	61329	63164	103,0	45,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	24072	24537	101,9	17,7
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1950	1894	97,1	1,4
Boshqa faoliyat turlari	19913	20276	101,8	14,6


**Sohalar kesimida ish haqi fondi va  
o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘m)

	O‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m (yanvar- sentabr)		O‘shish sur‘ati, %
	2021- yil	2022- yil	
<b>Xorazm viloyati - jami:</b>	<b>2453,1</b>	<b>3053,6</b>	<b>124,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Sanoat	2932,4	3488,8	119,0
Qurilish	2863,3	2995,1	104,6
Savdo	2159,6	2228,8	103,2
Tashish va saqlash	4191,6	6520,9	155,6
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1428,9	1774,4	124,2
Axborot va aloqa	2897,3	3915,2	135,1
Moliyaviy va sug‘urta faoliyati	6769,0	8515,8	125,8
Ta‘lim	2075,2	2452,8	118,2
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	2124,0	2628,0	123,7
San‘at, ko‘ngil ochish va dam olish	1849,9	2265,7	122,5
Boshqa faoliyat turlari	2621,0	3473,3	132,5

2022- yil yanvar-sentabr oylarida 2021- yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o‘shish sur‘ati tashish va saqlash faoliyatida 55,6 %, axborot va aloqada – 35,1 %, moliyaviy va sug‘urta faoliyatida – 25,8 %, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 23,7 %, yashash va ovqatlanish xizmatida - 24,2 %, san‘at, ko‘ngil ochish va dam olishda -22,5 % va ta‘limda - 18,2 % darajada kuzatildi.


## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o‘shish sur‘ati

(2022- yil yanvar-sentabrda qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so‘mda)



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, ya‘ni o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida 4057,4 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 132,9 %), Tuproqqal’a tumanida 4 179,3 ming so‘mni (136,9 %) tashkil etgan bo‘lsa, Yangibozor tumanida 2 188,7 ming so‘mni (71,7 %), Hazorasp tumanida 2 256,5 ming so‘mni (73,9 %), Gurlan tumanida 2 361,1 ming so‘mni (77,3 %) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

**Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi  
(2022- yil yanvar-sentabr, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)**



**Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020- yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, 2022- yilning 1- iyundan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 920 000,0 so'mni tashkil etadi.



**Ta'lim faoliyati bo'yicha shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (viloyat ko'rsatkichiga nisbatan)**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

	<i>2022- yil yanvar-sentabr oylarida o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm</i>	<i>Viloyatga nisbatan foizda</i>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>2452,8</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>		
Urganch	3403,7	138,8
Xiva	2349,3	95,8
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot	2242,1	91,4
Gurlan	2109,1	86,0
Qo'shko'pir	2063,0	84,1
Urganch	2275,0	92,7
Hazorasp	2133,2	87,0
Tuproqqal'a	2180,4	88,9
Xonqa	2467,8	100,6
Xiva	2324,5	94,8
Shovot	2234,8	91,1
Yangiariq	2754,7	112,3
Yangibozor	2051,0	83,6

**Shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm)

